

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti

O'zbekiston Yuzuvchilar uyushmasi

Turkiya davlati Karabuk universiteti

Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy
nomidagi Adabiyot instituti

Al-Forobiy nomidagi Qozoq Milliy universiteti

«TURKIY XALQLAR ADABIYOTSHUNOSLIGI VA MATSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI»

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferans
materiallari**

2026-yil 15-yanvar
Toshkent – 2026

Mas'ul muharrir:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori, akademik

Taqrizchilar:

Kemal Yavuz Ataman

ijtimoiy fanlar doktori, Turkiya

Dilnavoz Yusupova

filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Almaz Ulviy Binnatova (Ozarbayjon), Jabbor Eshonqulov (O'zbekiston), Islam Jemeney (Qozog'iston), Funda Toprak (Turkiya), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Olim Davlatov (O'zbekiston), Quanishbay Orazimbetov (Qoraqalpog'iston), Nafas Shodmonov (O'zbekiston), Bahodir Karimov (O'zbekiston), Uzoq Jo'raqulov (O'zbekiston), Maqsud Asadov (O'zbekiston), Zeboxon Qobilova (O'zbekiston), Dilshod G'ayipov (O'zbekiston), Darmonoy O'rayeva (O'zbekiston), Dirlabo Quvvatova (O'zbekiston), Qo'ldosh Pardayev (O'zbekiston), Shermuhammad Amonov (O'zbekiston), Gulrux Xudoyorova (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi ilmiy maktabining asoschisi, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov tavalludining 60 yilligi munosabati bilan o'tkazilayotgan "Turkiy xalqlar adabiyotshunosligi va matshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-nazariy konferans materiallari jamlangan. To'plamda olim ilmiy-ijodiy faoliyatining o'zbek va qardosh xalqlar adabiyotshunosligida tutgan o'рни va ahamiyatiga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Shuningdek, turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti tahlili, adabiy manbashunoslik va matshunoslikning nazariy va amaliy masalalari, navoiyshunoslik muammolari, istiqboli, zamonaviy adabiyotni o'rganish masalalarini yoritishga bag'ishlangan maqolalar ham kiritilgan.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tabiriyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

“MAORIF VA O‘QITG‘UVCHI” JURNALIDA XOTIN-QIZLAR MUAMMOLARINING BADIY TALQINI

Gulzoda Soatova,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
e-mail: soatovagulzoda001@gmail.com

Annotatsiya

Maqola 1920–1930-yillardagi adabiy muhit va xotin-qizlar hayotidagi tub burilishlarga bag'ishlangan fikrlar bilan boshlanadi. Asosiy markazda “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnalida nashr etilgan xotin-qizlar masalasiga bag'ishlangan asarlar tablili, ushbu mavzular bo'yicha olib borilgan bahs-munozaralar va muallifning bu bahs-munozaralarga munosabati keltirilgan. Ushbu asarlardan kelib chiqib, umuman, o'sha davr xotin-qizlarining dunyoqarashi, muammolarini qay darajada hal qilishi haqidagi fikrlar ham berilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, ilm-ma'rifat, “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnali, paranji, erk.

Abstract

The article begins with thoughts on the literary environment and fundamental changes in women's lives in the 1920s-1930s. The main focus is on the analysis of works published in the journal “Education and Teacher” on women's issues, the debates on these topics, and the author's attitude to these debates. Based on these works, thoughts are also given about the worldview of women of that time in general and the extent to which they solved their problems.

Keywords. women, science and enlightenment, journal “Education and Teacher”, burqa, man.

Milliy uyg'onish davri adabiyoti XX asrning 20–30-yillarida sho'ro adabiy muhitida keskin mafkuralashtirildi: partiyaviy tazyiq ostida sinfiy dushman izlash kayfiyati kuchaydi, so'z va ijod erkinligi cheklab qo'yildi, natijada esa vulgar sotsiologizm tamoyillari ildiz otdi. “O'tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”dek shoh asarlarimiz zararli deb topildi, jadidchilik adabiyoti namoyandalari esa turli ayblar, bo'htonlar bilan qoralandi. 30-yillar o'rtasidan markaz Yozuvchilar uyushmasi qurultoyining qarori bilan rasmiy kuchga kirgan sotsialistik realizm metodi haqidagi aqidaning keng joriy etilishi oqibatida o'zbek adabiyotiga partiyaviylik, sinfiylik, g'oyaviylik, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik degan tushunchalar chuqur singib bordi. Mumtoz adabiyotga munosabat o'zgardi. Mashrab, Yassaviy, Boqirg'oni, Boyqaro, Feruz (Muhammad Rahimxon) kabi ijodkorlar merosi batamom qoralandi. Sho'ro mafkurasining zug'umi, tanqid va adabiyotning jiddiy xatolari tufayli Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, So'fizoda, Elbek, Botu, Usmon Nosir singari shoir va yozuvchilar, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud kabi adabiyotshunoslar bizdan tortib olindi.

Bu davrda faqatgina adabiy muhitdagina emas, balki ayollar hayotida ham tub burilishlar yasaldi. Paranj tashlandi, ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo'ldi, jamiyatning faol a'zosiga aylandi. 1925–1933-yillarda faoliyat yuritgan “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnali bu masalalarni o'rganishda muhim manbadir. Ushbu jurnalda o'z davrining dolzarb muammosi bo'lib kelgan xotin-qizlar masalasiga doir ko'plab maqolalar, hikoya va qator she'rlar chop etilgan. Elbek, Mahmud Odil, Cho'lpon, Shokir Sulaymon, Oltoy, Bektosh singari ijodkor ma'rifatparvarlar ayollarni jamiyatda o'zligini anglashi, erki uchun, qadr-qimmatini uchun kurashishga undaganligini ko'rishimiz mumkin. Xotin-qizlar masalasi va muammolari yoritilgan asarlarga e'tibor qaratsak, bularning ba'zilarida ularning ilm-ma'rifatli bo'lishi, hunar o'rganishi, buning uchun paranjidan qutulishi kerakligi borasidagi ma'rifiy muammolar kuylansa, ba'zilarida esa ular ham farovon turmushga loyiqligi, yosh qizlarning ota-onalari tomonidan majburan keksa boylarga uzatilayotganligi, ularning o'z oilasida qadr-qimmatini yo'qligi, tirik jon sifatida emas, bir matohdek qaralishi, erkaklar tomonidan ezilishi kabi maishiy muammolar ochiq-oydin ko'rsatib berilgan. Masalan, Cho'lponning “Paranji”



[Cho'lpon, 1925: 50] she'rida xotin-qizlarga murojaat qilinib, paranjini yirtishi, yoqishi, yo'q qilishi o'zgacha pafos bilan aytilgan.

*Yirtingiz,
Go'rlarga eltingiz!
Yonduring chimmatni,
Bo'g'masun,
To'smasun,
Tabini ziynatni!
Yo'q bo'lsun,
Yo'q bo'lsun,
Paranji!*

Shuningdek, Cho'lpon she'rida xotin-qizlarning yulduzlardan nur, shu'lalardan to'r olib o'ynab-kulishini, tiniq ko'ldan chiqqan bir to'p pari kabi gullab yashnashini, parangi ostida berkinib, "Menga ham erk" degan qizlarning holatini go'zal tasvirlarda chizib beradi. Ammo Elbek bu voqeani "Erk nima" [Elbek, 1926: 59] she'rida boshqacha tasvirlaydi. Bu she'rni "Erk ma'nosin yanglish tushung'uvchi xotin-qizlarga" ataganligini aytadi. She'rida ayollar uchun erk qanday bo'lishi tushuntiriladi. Ma'nosi tushunarli bo'lishi uchun she'rning o'zini keltiramiz:

*Ko'p zamonlar erksiz qoldiq,
Eng so'ng, erkni qo'lg'a oldiq.
Otini "chuv" deb qamchi soldiq,
Tez yurdikda yo'lda toldiq.
"Ot yozugli!" dedik sotdiq,
Lash-lushlarni qo'ldan otdiq.
Qimirlamay toshdek qotdiq,
Oyoq cho'zib jim-jit yotdiq.
"Erk oldiq" deb erkalagan,
Erk qonunini tirkalagan.
Hoy yanglishg'on xotin-qizlar,
Erk otini minmang sizlar!*

*Erk muqaddas qonun erur,
Mazlumlarga erklik berur.
Kimki bunga ko'krak kerur,
Erk chechagin albat terur.
Erk otig'a bermay oziq,
Qattiq chopmoq gunoh-yoziq.
Erk ma'nisi chopmoq emas,
Esi borlar bunday demas.
Erk ma'nisi erkin bo'lmoq,
Ilm-u hunar bilan to'lmoq.
Yo'qsil elga bilim bermak,
Mashaqqatga ko'krak kermak!*

Ko'ringanidek, she'rida erk qonunini tirkalab yanglishgan, qattiq chopgan xotin-qizlarga murojaat etilmoqda. Erkin bo'ldik, paranjini tashladik deb o'zlariga yarashmaydigan ishni qilmaslik, erkdan to'g'ri foydalanib, ilm-hunar o'rganish, yo'qsil elga bilim berish, mashaqqatlarni aql bilan yengish haqida so'z boradi.

Xotin-qizlar muammolariga bag'ishlangan asarlarni o'rganish mobaynida bu davrlarda ayollarning huquqlari aksar hollarda haqiqatan ham toptalganining guvohi bo'lamiz. Bu, albatta, ma'rifatsizlik, ilmsizlik natijasi. Zero, bu haqida professor N. Jabborov shunday deydi: "Binobarin, har bir millatni, uning vakillarini jaholatdan qutqarguvchi yagona vosita – ilm va maorifdir. Kimki ilm va maorifga munosib darajada e'tibor bersa, shubhasiz, saodatga erishadi" [Abdulkhakim N., 2005, 14-15].

Aynan 20–30-yillarda xotin-qizlarning parangi tashlashi voqeasi sodir bo'ldi. Bu bir tomondan yaxshilikka xizmat qildi. Lekin Turkiston xalqiga tushuntirmasdan, bu ishning mohiyati, natijasini aytmasdan, mentalitet, urf-odat masalalarini inobatga olmasdan shiddat bilan tez fursatda qilinganligi ko'plab iste'dodli qizlarimizning ayanchli o'lim topishiga sabab bo'ldi. Bu jurnalda nashr etilgan she'rlarda ham o'z aksini topadi. Elbek so'zlari bilan aytganda, erk qonunini tirkalab yanglishgan, qattiq chopgan xotin-qizlar o'z boshlariga balolar sotib olishdi. Bu haqida jurnalimizning 5-6-sonida Shokir Sulaymonning "Sir" taxallusi ostida bergan "Dog'li yo'qotish" [Sir, 1928: 35] bag'ishlov hikoyasida shunday so'zlar berilgan:

(O'zbek davlat truppasining talantli aktrisasi Tursunoy xotirasiga bag'ishlanadi. 1928-yil 19-



may. Buxoro shahrida vafot etdi).

(Nasr)

“Hay attang... “Tursunoy”ni yo’qotdik. O’zbek sahnasi manguga ko’ra olmaydi uni. Ko’z yoshlarning endi foydasi yo’q. Topolmaydi uni. Qip-qizil marjon donalarning bitta gavhari – qimmatli sadafi. O’ynoqi, biyron, suygumli – Tursunoy. Qorong’u tunlarning kirli qo’ynida hadaf bo’ldi. Zahar, uchli o’tkir pichoqning keskin tig’lari, shumli qo’llarida qayrildi. Ma’suma bo’g’zidan qon yaladi. Vaqtsiz qurbon bo’ldi Tursunoy... Ilon zaharli tilidan asalmi beradi? ‘Yirtqichlar’ bolasi orqangizni nima silaydi? Bo’rilar tumshug’i qonsizmi bo’ladi? Mana, Tursunoy yo’q! Sora, Zamira, Bahrioylarning g’ururli ko’klariga motam chechaklari taqildi. Motam chechaklari...

Yo’qotish dog’li, alamli! Nachora? Kurash qurbonsiz bo’lmaydi... Sahnamiz yana ham gullaydi. Biz eslaymiz, yashnaydi. Eslaymiz qimmatli Tursunoyini, yodlaymiz ‘Halima’day ‘doston’ini. Biroq yangi ruh, yangi zavq, yangi kuch, tetik qadam bilan, olg’a otlangan olov yuraklarni ko’rib quvonamiz!”

Albatta, ayollarning ochiqlikka chiqishi ularga juda yaxshi imkoniyatlar berdi. Ilm o’rgandi, hunar bilan shug’ullandi, ishladi. Bu xayrli ish oddiy, sodda xalq bilan birgalikda bosqichma-bosqich olib borilganda yuqoridagi nasrda berilgan muammolar bo’lmas edi.

“Maorif va o’qitg’uvchi” jurnalida xotin-qizlar masalasiga bag’ishlangan asarlar bilan tanishar ekanmiz, bu mavzu juda bahsli ekanligining guvohi bo’lamiz. Yangi adabiyotga qadam qo’yayotgan Mahmud Odilning 1928-yil 8–9-sonida nashr etilgan “Ozod xotin so’zi” [Mahmud O., 1928: 61] nomli she’rida ilondek oyoqlariga yopishgan erksizlik ipidan qutulib, erkin hayotga erishgan ayol so’zlari keltirilgan. Ayol ilgari erkaklar oyoqlari ostida ezilgani, erk ashulasini aytolmagani, endi esa o’z erki ila ishda va o’qishda erkaklar bilan teng huquqli bo’lib ishlayotgani, o’qiyotgani aytilib, yurt taraqqiyoti uchun o’z hissasini qo’shayotgani ta’kidlanadi.

*Ilgari iplandik, erksizlik ipi,
Oyoqlarimg’a o’ralg’on edi,
Erk osmonimg’a ucholmas edim.
Endi erkliman, o’z erkim ila,
Ishda, o’qishda erkaklar ila,
Aralash ishlab, o’qimoqdaman.*

Ushbu she’rda o’z kelajagi uchun qayg’uradigan, olg’a intilib o’qiydigan, ishlaydigan, o’z fikriga ega uddaburon xotin-qizlar haqida gap borsa, jurnalning 1928-yil 7-sonida Mahbuba Rahim qizining “Aldangan qiz” [Mahbuba Rahim qizi, 1928: 31-34] va Elbekning “Yangi turmush izlovchi” [Elbek, 1926: 25-27] hikoyalarida aldangan xotin-qizlarning achchiq qismati yotadi. Bu hikoya qahramoni Mastonoy va Qahhorxo’janing ayoli o’z mustaqil fikriga ega emasligi, kim nima desa unga ergashib ketaverishi, hayotga teran nazar bilan boqmasligi bois mana shunday og’ir hayotga duchor bo’ladi. Bir so’z bilan aytganda, hayotining qanday kechishi ma’lum ma’noda insonning o’ziga ham bog’liq. Bu yo’lda ma’rifat ko’p muammolarga yechim bo’ladi. Zero, bu fikrimizni professor Q. Pardayev shunday ifodalaydi: “XX asr boshlaridagi ma’rifatchilik harakati jamiyat hayotini isloh qilish masalasini kun tartibiga qo’yar ekan, bunda ma’rifat va jaholat ziddiyati asosiy muammo darajasiga ko’tarildi” [Pardayev, 2021: 70].

“Aldangan qiz” hikoyasida otasidan juda yosh yetim qolgan, ro’zg’orga yordami tegishi uchun choyxonada idish yuvib kun kechirgan, oxir-oqibat aldangan Mastonoy haqida hikoya qilinadi. Qodirning shirin gaplariga uchib aldangan Mastonoyning og’ir qismati, ko’rgan qiyinchiliklari tasvirlanadi. Qodir Mastonoyini ishontirib, o’zi esa boshqa qiz bilan bo’lib ketgani, oxir-oqibat ikkisini ham baxtsiz qilib qo’ygani qalamga olinadi. “Yangi turmush izlovchi” hikoyasida ham Qahhorxo’ja xotini ustiga yana uylanib, oxirida uni ham tashlab boshqasiga ko’ngil qo’yishini ko’rishimiz mumkin. “Elbekning yangi hikoyalari tahlili” [Soatova, 2023: 84-95] maqolasida “Yangi turmush



izlovchi” hikoyasi bugungi kunda ham dolzarb boʻlgan mavzu ekani taʼkidlanadi: “Yoshlik kuchiga, gʻayratiga uchib, hoy-u havasga berilgan Qahhorxoʻjaning qismati barcha davrda uchraydigan illat. Buning yechimi tarbiya masalasiga borib taqaladi. Oilada mustahkam tarbiya topgan, dunyoqarashi keng farzand hech qachon bunday hayot yoʻlini tanlamaydi”.

Xulosa qilib aytganda, “Maorif va oʻqitgʻuvchi” jurnali 20–30-yillardagi xotin-qizlarning taqdiridan soʻzlovchi asosiy manbalardan biridir. Unda nashr etilgan asarlarda ayollarning erk neʼmatidan bahramand boʻlib, ilm-maʼrifat oʻrganishi, yoshlarga bilim berishi, shu bilan birgalikda xotin-qizlarning achchiq, huquqi toptalgan hayoti tasvirlangan. Biz bu asarlarni mutolaa qilib, oʻtgan davrlarda yashagan xotin-qizlar hayoti bilan tanishamiz, yaxshi tomonlarini oʻzlashtiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Choʻlpon. Parangi. Sheʼr. //Maorif va oʻqitgʻuvchi. – T.: 1925. – № 2.
2. Elbek. Erk nima? Sheʼr. //Maorif va oʻqitgʻuvchi. – S.: 1926. – № 3.
3. Abdulhakim N. Maʼrifat nadir? // Tafakkur, 2005. 3-son. – 14–15-betlar.
4. Sir. Dogʻli yoʻqotish. Nasr. //Maorif va oʻqitgʻuvchi. – S.: 1928. – № 5.
5. Mahmud O. Ozod xotin soʻzi. Sheʼr. //Maorif va oʻqitgʻuvchi. //Maorif va oʻqitgʻuvchi. – S.: 1928. № 8–9.
6. Mahbubu Rahim qizi. Aldangan qiz. Hikoya. //Maorif va oʻqitgʻuvchi. – S.:1928. – № 7.
7. Elbek. Yangi turmush izlovchi. Hikoya. //Maorif va oʻqitgʻuvchi. – Samarqand, 1926. – № 7–8.
8. Pardayev Q. Al-isloh va XX asr boshlari oʻzbek adabiyoti. – Toshkent: Mahalla va oila, 2021.
9. Soatova G.N. Elbekning yangi hikoyalari tahlili. Oʻzbekiston: Til va madaniyat. Adabiyotshunoslik 1 (2): 2023.



8	Do'stova Surayyo Savronovna Muhammad Yusuf Bayoniy adabiy merosi haqida	320
9	Furqat To'xtamuratov Muhsiniy biografiyasini yaratishda o'z asarlarining o'rni	327
10	Muxlisa Maxamatxonova "Shohnomayi andalib" asarining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni	331
11	Shahnoza Rasulova Xislat ijodida matn va tahrir muammolari	336
12	Safarova Fotima Ne'matulla qizi Turkiy qo'lyozmalar korpusida ko'p nusxalilikni aniqlashda sun'iy intellekt asosida variantlarni avtomatik solishtirish	343
13	Murotova Gulnoz Nematovna Turkiy xalqlar og'zaki va yozma matnlarida paralingvistik elementlar: multimodal matnshunoslik asosida tahlil	348
14	Akbarov Zuhridin O'ktam o'g'li Linguistic features influencing textual variation in turkic manuscripts	352
15	Arslonov Abdimurod Karomatovich Nurbay Jabborovning adabiy-matnshunoslik ilmiy maktabi: metodologiya va amaliy natijalar	355
16	Zarifjon G'ulomov Turkiy matnlar elektron bazasini yaratish va ularni ilmiy muomalaga kiritish istiqbollari	359
17	Usmonov Aslam Karshiboyevich Matn, hajviy matn va uning uslubiy xususiyatlari	364

TO'RTINCHI SHO'BA
TURKIY XALQLAR YANGICHA
MA'RIFATPARVARLIK VA JADID ADABIYOTI

1.	Qozoqboy Yo'ldosh Iste'dodli egizaklar va iste'dod egizakligi	368
2.	Quronov Dilmurod Haydaralievich "O'tkan kunlar"ning ildizlariga doir	374
3.	Obit Karimov Furqatshunoslikning yangi bosqichi	382
4.	Bahodir Karimov Cho'lpon va "Guliston"	386
5.	G'aniyev Ilhom Muzaffarovich Uilyam Shekspir va Abdurauf Fitrat dramalarida intertekstuallik	392
6.	Normurod Avazov Behbudiy va she'riyat	397



7.	Muxitdinova Badia Muslixiddinovna Vasliy Samarqandiyning turkiy merosida adabiy ta'sir, izdoshlik masalalari	401
8.	Pardayev Qo'ldosh Uzaqovich "Al-isloh" jurnalida islom ma'rifati masalasi	405
9.	Ilyos Ismoilov Qodiriya – Furqatning tariqati	412
10.	Gulzoda Soatova "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida xotin-qizlar muammolarining badiiy talqini	415
11.	Nodira Egamqulova Jadid matbuotida adabiy tanqidchilik	419
12.	Bo'tayeva Nigora Abdumannonovna Komil g'azallarida estetik idealning namoyon bo'lishi	424
13.	Barziyev Oybek Xabibullayevich Milliy uyg'onish davri farg'ona vodiysi hajviy she'rlarida mahalliy hukmdorlar obrazining badiiy talqini	428
14.	Fazilat Muhammadiyeva "Mushtum" va "Mulla Nasriddin" jurnallarining adabiy manba sifatida o'rganilishi	432
15.	Baqoyeva Gulbadanbegim Sherali qizi Furqat adabiy merosini o'rganish yo'lida	435
16.	Fotima Jo'rayeva Hamza Hakimzoda Niyoziyning "milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasi nashrlari xususida	439
17.	Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna Muhammadsharif So'fizoda ijodining o'ziga xos janr xususiyatlari	443
18.	Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna Muhammadsharif So'fizoda hayoti va adabiy merosi	447
19.	Sevinchoy Yoqubova Cho'lpon she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar	451
20.	Sayfiddinova Gulnoza Ulug'bek qizi Dukchi Eshon qo'zg'oloniga bag'ishlab yozilgan turkum she'rlar	455
21.	A'lo Arzimurodova Elbek hikoyalarida uslub mohiyati	460
22.	Zuhraxon Madaliyeva Mahmudxo'ja Behbudiy: xorij ilmiy tadqiqotlaridagi yondashuvlar	462
23.	Ismatova Shaxina Jadidchilik davri adabiyoti matnshunosligi	465
24.	Nazira Madraximova Istiqlol mavzusi cho'lponona ramzlarda	468

